

Sarhisob: "O'zkimyosanoat" Ajda 2025-yilda inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar

// 29.01.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-ajda-2025-yilda-inson-resurslarini-r>

2025-YILDA INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISHLAR



2025-yilda "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan inson resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

- Yil davomida kimyo sanoati tizimida jami 6427 nafar ishchi-xodimlar malakasi oshirildi.
- Shundan 3294 nafari respublika o'quv markazlarida, 3133 nafari esa korxonalar huzuridagi o'quv markazlarida ta'lim oldi.
- Malaka oshirganlar orasida 1277 nafarini yoshlar (20%) va 1461nafarini (22,7%) ayollar tashkil

qiladi.

- Shuningdek, 708 nafar xodim mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tayyorlandi.
- Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun 6 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Tizimga rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining 2025/2026-o'quv yili magistraturasiga tarmoqdan 6 nafar mutaxassis qabul qilindi.